



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma’lumotlar



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **39,0** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1** mingtaga kamaygan yoki **20,7 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-dekabrda **6,9** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1 %** ga ko'p demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

1348	Oqqo'rg'on t.	1010
1324	Ohangaron t.	987
1393	Bekobod t.	1199
2358	Bo'stonliq t.	1973
1416	Bo'ka t.	1105
1520	Quyichirchiq t.	1164
5535	Zangiota t.	4630
2603	Yuqorichirchiq t.	2086
4361	Qibray t.	3464
2396	Parkent t.	1948
1283	Piskent t.	929
2646	O'rta Chirchiq t.	1838
1402	Chinoz t.	1080
2677	Yangiyo'l t.	1839
3615	Toshkent t.	2781
1405	Nurafshon sh.	1012
2057	Olmaliq sh.	1575
2690	Angren sh.	2099
1525	Bekobod sh.	1314
1242	Ohangaron sh.	1067
2782	Chirchiq sh.	2514
1567	Yangiyo'l sh.	1339


2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **38 953** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 940** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida **4 630** tani yoki jamiga nisbatan **11,9 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

■ Ulushi, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Zangiota t.	29,0
Ohangaron sh.	27,3
Qibray t.	22,7
Nurafshon sh.	18,7
Parkent t.	18,0
Yuqori Chirchiq t.	17,4
Yangiyo‘l sh.	16,0
Toshkent t.	15,8
O‘rta Chirchiq t.	15,7
Ohangaron t.	15,1
Chirchiq sh.	14,7
Bo‘ka t.	13,6
Bo‘stonliq t.	13,4
Bekobod sh.	12,8
Yangiyo‘l t.	12,5
Piskent t.	12,1
Angren sh.	11,7
Oqqo‘rg‘on t.	11,6
Bekobod t.	11,1
Quyi Chirchiq t.	11,1
Olmaliq sh.	11,0
Chinoz t.	9,3

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024- yilning 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **15,2** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **5,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota tumanida **29,0** birlik, Ohangaron shahrida **27,3** birlik, Qibray tumanida **22,7** birlik, Nurafshon shahrida **18,7** birlik va Parkent tumanida **18,0** birlikka yetdi.




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Zangiota tumani
29,0 birlik.




O'rta ko'rsatkich

O'rta Chirchiq tumani
15,7 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Chinoz tumani
9,3 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida **29,0** birlik, Ohangaron shahrida **27,3** birlik, Qibray tumanida **22,7** birlik, Nurafshon shahrida **18,7** birlik, Parkent tumanida **18,0** birlik, Yuqori Chirchiq tumanida **17,4** birlik, Yangiyo'l shahrida **16,0** birlik, Toshkent tumanida **15,8** birlik, O'rta Chirchiq tumanida **15,7** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Zangiota tumani

29,0

Qibray tumani

22,7

Parkent tumani

18,0

Ohangaron shahri

27,3

Nurafshon shahri


18,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
257	Oqqo'rg'on t.	194
182	Ohangaron t.	244
265	Bekobod t.	325
323	Bo'stonliq t.	303
229	Bo'ka t.	256
188	Quyichirchiq t.	144
703	Zangiota t.	799
308	Yuqorichirchiq t.	303
477	Qibray t.	507
347	Parkent t.	445
193	Piskent t.	158
340	O'rta Chirchiq t.	313
199	Chinoz t.	154
340	Yangiyo'l t.	263
478	Toshkent t.	450
250	Nurafshon sh.	212
270	Olmaliq sh.	284
314	Angren sh.	352
201	Bekobod sh.	241
272	Ohangaron sh.	282
435	Chirchiq sh.	459
228	Yangiyo'l sh.	252

2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – **11,5** %, Qibray tumani – **7,3** %, Chirchiq shahri – **6,6** %, Toshkent tumani – **6,5** %, Parkent tumani – **6,4** %, Angren shahri – **5,1** %, Bekobod tumani – **4,7** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 2 882 ta, sanoatda 1185 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 621 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota tumanida 799 ta, Qibray tumanida 507 ta hamda Chirchiq shahrida 459 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabrida davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
 Investitsiya Qurilish
 Chakana savdo Xizmatlar
 Yuk tashish Yuk aylanmasi
 Yo'lovchi tashish Yo'lovchi aylanmasi
 Eksport Import




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabrida), % da

2023-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **48,7** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **2,1** punktga ko'paygan.



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **96,2** % ni, yo'lovchi tashishda **92,7** % ni, qishloq xo'jaligida **88,5** % ni, chakana savdoda **87,1** % ni, qurilishda **79,4** %, xizmatlar sohasida **69,4** % ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, trln so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Chirchiq shahri	3856,3
Zangiota tumani	3319,1
Toshkent tumani	2458,8
Yuqori Chirchiq tumani	2252,8
Qibray tumani	1745,3
Angren shahri	1437,6
Ohangaron shahri	892,8
Ohangaron tumani	888,5
Quyi Chirchiq tumani	794,4
O'rta Chirchiq tumani	774,8
Olmaliq shahri	666,3
Yangiyo'l tumani	625,4
Parkent tumani	575,3
Nurafshon shahri	547,4
Chinoz tumani	419,0
Yangiyo'l shahri	394,8
Bo'stonliq tumani	321,8
Piskent tumani	164,4
Oqqo'rg'on tumani	150,5
Bekobod shahri	144,6
Bekobod tumani	66,3
Bo'ka tumani	51,0

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22 547,2 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Chirchiq shahri (3 856,3 mlrd. so'm), Zangiota tumani (3 319,1 mlrd. so'm), Toshkent tumani (2 458,8 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (2 252,8 mlrd. so'm) va Qibray (1 745,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Oqqo'rg'on tumanida (51,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 21,3 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zangiota tumani (89,2 %), Toshkent tumani (84,2 %), Yuqori Chirchiq tumani (78,3 %), Quyi Chirchiq tumani (73,4 %), Parkent tumani (70,8 %), Yangiyo‘l shahri (51,1 %), Chinoz tumani (45,3 %), O‘rta Chirchiq tumani (44,1 %), Chirchiq shahri (38,1 %) va Yangiyo‘l tumani (30,8 %) tashkil etdi.

Zangiota t.	89,2
Toshkent t.	84,2
Yuqori Chirchiq t.	78,3
Quyi Chirchiq t.	73,4
Parkent t.	70,8
Yangiyo‘l sh.	51,1
Chinoz t.	45,3
O‘rta Chirchiq t.	44,1
Chirchiq sh.	38,1
Yangiyo‘l t.	30,8
Angren sh.	26,5
Piskent t.	26,4
Qibray t.	22,7
Nurafshon sh.	18,2
Bekobod t.	17,3
Ohangaron sh.	16,5
Oqqo‘rg‘on t.	15,7
Bo‘ka t.	14,6
Bo‘stonliq t.	12,4
Ohangaron t.	11,3
Olmaliq sh.	1,9
Bekobod sh.	1,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm) va ulushi

122,5	Bekobod t.	100,0
324,1	Bo'ka t.	100,0
345,9	Parkent t.	100,0
188,0	Piskent t.	100,0
247,7	Chinoz t.	100,0
870,9	Toshkent t.	100,0
745,8	Quyichirchiq t.	99,9
228,0	Ohangaron sh.	99,7
533,9	Ohangaron t.	99,6
1 283,2	Zangiota t.	99,1
613,5	Yangiyo'l t.	97,2
403,2	Angren sh.	97,1
598,7	O'rta Chirchiq t.	93,5
326,2	Yangiyo'l sh.	93,0
283,3	Oqqo'rg'on t.	91,2
472,8	Chirchiq sh.	89,9
613,1	Nurafshon sh.	86,6
1 042,9	Yuqori Chirchiq t.	84,7
394,8	Bo'stonliq t.	82,6
420,9	Bekobod sh.	72,5
849,9	Qibray t.	65,4
463,3	Olmaliq sh.	20,6

2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **11 372,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **106,2** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani (**1 283,2** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**1 042,9** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**870,9** mlrd. so'm), Qibray tumani (**849,9** mlrd. so'm), Quyichirchiq tumani (**745,8** mlrd. so'm), Yangiyo'l tumani (**613,5** mlrd. so'm) hamda Nurafshon (**613,1** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

■ 2022- y.

■ 2023- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **17 254,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **38,8 %** ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Ohangaron tumani (**3 202,4** mlrd. so'm), Quyi Chirchiq tumani (**1 657,6** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**1 644,2** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**1 312,4** mlrd. so'm), Angren shahri (**1 273,2** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1 086,0** mlrd. so'm), O'rta Chirchiq tumani (**935,5** mlrd. so'm) hamda Chirchiq (**918,0** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi mlrd.so'm ■ foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **41 001,6** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **88,5** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **104,0** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Bekobod tumani (**4 252,7** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**3 483,3** mlrd. so'm), Yangiyo'l tumani (**3 295,9** mlrd. so'm), Parkent tumani (**3073,0** mlrd. so'm), Oqqo'rg'on tumani (**2 971,2** mlrd. so'm) hamda Zangiota (**2 743,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd so'm) va ulushi




2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **26 242,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **87,1** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **103,0** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi mlrd so'm

Zangiota t.	2952,5
Toshkent t.	2388,9
Olmaliq sh.	2184,6
Yangiyo'l sh.	1947,2
Qibray t.	1714,7
Bo'stonliq t.	1646,2
Angren sh.	1443,2
Bekobod sh.	1256,6
Oqqo'rg'on t.	1203,5
Chirchiq sh.	1099,1
Bo'ka t.	1047,7
Parkent t.	1026,7
Yangiyo'l t.	958,0
Chinoz t.	805,8
Yuqori Chirchiq t.	799,8
Ohangaron sh.	737,7
Piskent t.	678,5
Nurafshon sh.	601,8
Bekobod t.	552,0
Quyichirchiq t.	468,2
O'rta Chirchiq t.	408,2
Ohangaron t.	321,9


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**2 952,5** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**2 388,9** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**2 184,6** mlrd. so'm), Yangiyo'l shahri (**1 947,2** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1 714,7** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**1 646,2** mlrd. so'm) va Angren (**1 443,2** mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Zangiota t.	1919,8
Chirchiq sh.	1814,7
Olmaliq sh.	1612,8
Qibray t.	1564,6
Toshkent t.	1456,7
Angren sh.	1361,4
Bo'stonliq t.	1192,0
Yangiyo'l sh.	1187,9
Yangiyo'l t.	1179,4
Bekobod sh.	1173,2
Yuqori Chirchiq t.	1027,5
Parkent t.	982,4
O'rta Chirchiq t.	804,4
Bo'ka t.	745,6
Bekobod t.	724,3
Oqqo'rg'on t.	697,2
Chinoz t.	615,0
Ohangaron sh.	488,3
Nurafshon sh.	455,2
Quyi Chirchiq t.	424,0
Ohangaron t.	363,0
Piskent t.	359,3


2023- yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **22 148,6** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Zangiota tumani (**1 919,8** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**1 814,7** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**1 612,8** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1 564,6** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**1 456,7** mlrd. so'm), Angren shahri (**1 361,4** mlrd. so'm) va Bo'stonliq tumani (**1192,0** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabrida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, ming. AQSH dol.

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **605,9** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **32,6** % ini tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi mlrd so'm

Yuqori Chirchiq t.	67,2
Toshkent t.	65,8
Chirchiq sh.	56,4
Zangiota t.	50,1
Qibray t.	35,9
Quyi Chirchiq t.	33,8
Angren sh.	32,6
Parkent t.	27,7
Yangiyo'l t.	27,0
Yangiyo'l sh.	26,8
Ohangaron t.	24,0
Olmaliq sh.	23,9
O'rta Chirchiq t.	23,4
Bo'ka t.	22,9
Chinoz t.	21,2
Nurafshon sh.	20,6
Bo'stonliq t.	12,3
Ohangaron sh.	10,8
Piskent t.	9,8
Bekobod t.	5,1
Bekobod sh.	4,3
Oqqo'rg'on t.	3,6

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Quyi Chirchiq tumani – **98,9** %, Bekobod tumani – **97,7** %, Bo'ka tumani – **97,3** %, Yangiyo'l shahri – **97,2** %, Qibray tumani – **95,3** %, Yuqori Chirchiq tumani – **90,8** %, Zangiota tumani – **88,2** % va Toshkent tumani – **86,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Olmaliq shahri – **3,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **2 061,3** million AQSH dollarini yoki jami importning **53,6** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Quyil Chirchiq tumani – **100,0** %, Parkent tumani – **99,3** %, Zangiota tumani – **98,6** %, Yangiyo'l shahri – **95,4** %, Chinoz tumani – **89,0** %, Toshkent tumani – **88,4** %, hamda O'rta Chirchiq tumani **86,6** % ni tashkil etdi.


Zangiota t.	508,7
Qibray t.	226,7
Toshkent t.	220,1
Chirchiq sh.	216,3
Ohangaron t.	142,6
Angren sh.	127,5
Ohangaron sh.	118,4
Yuqori Chirchiq t.	89,5
Yangiyo'l sh.	81,9
Yangiyo'l t.	55,0
O'rta Chirchiq t.	47,1
Olmaliq sh.	46,4
Quyil Chirchiq t.	45,4
Chinoz t.	31,9
Nurafshon sh.	29,2
Bo'stonliq t.	25,0
Parkent t.	16,8
Piskent t.	16,4
Bekobod sh.	7,4
Bo'ka t.	4,3
Bekobod t.	2,7
Oqqo'rg'on t.	2,1

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **24,7 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **138,7 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **56,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning y yanvar-dekabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,9 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 784 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 527 (29,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1 079 (60,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 178 (10,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 38,9 % (694 ta), xizmatlar sohasida – 28,9 % (515 ta), sanoatda – 17,2 % (306 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 % (147 ta), qurilishda – 6,8 % (122 ta) ni tashkil etdi.

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

39,9	Oqqo'rg'on t.	2,1
18,2	Ohangaron t.	2,3
9,9	Bekobod t.	2,3
32,1	Bo'stonliq t.	5,2
30,4	Bo'ka t.	3,0
113,2	Quyichirchiq t.	3,2
521,3	Zangiota t.	12,6
216,2	Yuqorichirchiq t.	5,3
136,6	Qibray t.	9,5
77,5	Parkent t.	5,4
30,2	Piskent t.	2,5
30,2	O'rta Chirchiq t.	4,5
33,4	Chinoz t.	2,6
121,8	Yangiyo'l t.	4,0
123,4	Toshkent t.	7,0
24,3	Nurafshon sh.	2,0
134,4	Olmaliq sh.	4,2
139,6	Angren sh.	5,4
28,5	Bekobod sh.	3,8
16,5	Ohangaron sh.	2,6
552,6	Chirchiq sh.	6,8
79,7	Yangiyo'l sh.	3,6


■ Hajmi, mlrd. so'mda

■ Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota tumani (224 ta), Qibray tumani (170 ta), Toshkent tumani (127 ta), Chirchiq (121 ta) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz


Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbiarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning IV choragida **311** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **527** taga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **216** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **778** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **1 079** ta yoki **301** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilning IV choragida **107** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV choragiga kelib **178** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilning IV choragiga nisbatan **71** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **557** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **552** taga yetgan 2018- yilning IV choragiga nisbatan **5** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **561** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **868** taga yetgan 2018- yilning IV choragiga nisbatan **307** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning IV choragida **68** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **173** taga yetgan 2018- yilning IV choragiga nisbatan **105** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **29,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **10,2** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **19,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **60,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **65,1** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **4,6** % birlik oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning IV choragida **10,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **90,1** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **80,1** % birlik oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **47,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **34,7** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **12,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilning IV choragida **47,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **54,5** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **7,2** % birlik oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilning IV choragida **5,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **10,9** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **5,2** % birlik oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **34,2** % ni, sanoatda – **31,7** % ni, savdoda – **28,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **68,0** % ni, qurilishda – **64,8** % ni, savdoda – **61,4** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,6** % ni, sanoatda – **11,8** % ni, savdoda – **10,4** % ni tashkil etdi.

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 39,6 % ni, xizmatlar sohasida – 36,0 % ni, va qurilishda – 33,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 59,8 % ni, savdoda – 57,4 % ni, xizmatlar sohasida – 53,0 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda – 16,7 % ni, xizmatlar sohasida – 11,0 % ni, sanoatda – 11,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	38,3	47,2	14,5
Band bo'lganlar soni	22,6	66,7	10,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	31,7	60,6	7,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	25,0	66,4	8,5
Raqobat muhiti	34,8	58,6	6,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,2	54,4	6,4
Band bo'lganlar soni	25,2	69,4	5,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,5	62,4	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,7	66,8	5,5
Raqobat muhiti	36,2	58,9	4,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli